**SH A R T N O M A № 10**

*(Xizmat ko`rsatish haqida)*

2022-yil «__» февраль Farg'ona shahri

Farg'ona viloyat hokimligi huzuridagi «Elektron hokimiyatni rivojlantirish markazi» nomidan Nizom asosida xarakat qiluvchi direktor S.Maxmudov bir tomondan (bundan buyon «Xizmat ko`rsatuvchi» deb yuritiladi), Marg'ilon shahar xalq ta'limi bo'limi nomidan Nizom asosida xarakat qiluvchi mudira G.N.Kayumova ikkinchi tomondan (bundan buyon «Buyurtmachi» deb yuritiladi) quyidagilar haqida ushbu shartnoma tuzdilar.

## I. ShARTNOMA PREDMETI.

1.1. «Xizmat ko`rsatuvchi» «Buyurtmachi» oldidagi E-XAT himoyalangan elektron pochta tizimida ro'yxatdan o'tkazish (04.05.2011 yil VMK-126 ), ERI kaliti sertifikatlarini tayyorlash va taqdim etish, maslahat xizmatlarini ko'rsatish xizmatlarni amalga oshirish, «Buyurtmachi» esa to`lovni belgilangan tartibda amalga oshirish majburiyatini oladilar.

## II. KO'RSATILADIGAN XIZMATLAR VA ShARTNOMA NARXI.

2.1.

| № | Hizmat nomi | Ulch Bir | Miq | Narxi | Yetkazib berish qiymati | QQS % | QQS sum | Jami QQS bilan |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | E-XAT himoyalangan elektron pochta tizimida ro'yxatdan o'tkazish (04.05.2011 yil VMK-126 ), ERI kaliti sertifikatlarini tayyorlash va taqdim etish, maslahat xizmatlarini ko'rsatish | dona | 1 | 499445 | 499445 | | QQSsiz | 499445 |
| | JAMI | | | | 499445 | | | 499445 |

2.2. Xizmatning shartnomaviy umumiy baxosi: 499445 (To'rt yuz to'qson to'qqiz ming to'rt yuz qirq besh) so`m.

## III.HISOB-KITOB QILISh TARTIBI.

3.1. Hizmat narxlari kelishuv asosida 499445 (To'rt yuz to'qson to'qqiz ming to'rt yuz qirq besh) sum.

3.2. To'lov «Buyurtmachi tomonidan «Xizmat ko`rsatuvchi»ning hisob raqamiga pul o'tkazish yuli bilan amalga oshiriladi.

3.2. «Buyurtmachi» ko'rsatiladigan xizmat uchun oldindan, shartnomadagi narxning 30 % miqdorida pul o`tkazish yo`li bilan oldindan to`lovni amalga oshiradi, 70 % to'lov xizmat bajarib bo'lingandan so'ng hisob-faktura va ish bajarilganligi to'g'risidagi dalolatnomaga asosan amalga oshiriladi.

## IV. XIZMATNI YeTKAZIB BERISh MUDDATI.

4.1. «Xizmat ko`rsatuvchi» mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirgandan sung to`lov amalga oshirilgan kundan boshlab 3 ish kuni ichida «Xizmat ko'rsatuvchi» shartnomaga asosan "Buyurtmachi"ga xizmatni ko'rsatib beradi.

## V. XIZMAT SIFATI.

5.1. Ko'rsatilayotgan xizmatning sifati «Buyurtmachi»ning talabiga mos kelishi shart.

## VI. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYaTLARI.

6.1. «Xizmat ko`rsatuvchi»ning huquq va majburiyatlari:

Hizmat ko'rsatuvchi:

«Buyurtmachi» rahbarining pasport ma'lumotlariga asosan Ye-XAT himoyalangan elektron pochta tizimida ro'yxatdan o'tkazib, (04.05.2011 yil VMK-126 ), ERI kaliti sertifikatlarini tayyorlaydi va taqdim etadi;

hizmat bajarib bo'linganligi to'g'risida «Buyurtmachi»ni ogohlantiradi;

shartnomada ko`rsatilgan talablarga rioya qilgan holda o'z vaqtida «Buyurtmachi»ga xizmat ko'rsatib beradi;

hizmatni topshirish jarayonida yuzaga kelgan muammolar bo'yicha «Buyurtmachi»ning rasmiy so'rovini qabul qiladi va o'z vaqtida bartaraf etib, texnik yordam ko'rsatadi;

ko'rsatilgan xizmatni shartnoma muddati davrida soz holatda ishlashini ta'minlaydi;

hisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to`liq rekvizitlarini rasmiylashtirishini ta`minlaydi;

«Buyurtmachi» ma'lumotlariga kirishni ta'minlash uchun, uskunalarni tunu-kun ishlashini nazorat qiladi;

«Buyurtmachi»ga telefon yoki elektron pochta orqali maslahat berish yo'li bilan axborot ko'magini ko'rsatadi;

vaqti vaqti bilan 24 soatdan oshmagan holda "Hizmat ko'rsatuvchi" uskunalarida rejali profilaktika va ta'mirlash ishlarini o'tkazilishi munosabati bilan hizmatni o'chirib turish mumkin;

"hizmat ko'rsatuvchi" "Buyurtmachi" yuborgan ma'lumotlar mazmuniga javobgar hisoblanmaydi;

"hizmat ko'rsatuvchi" internet tarmoqlari va "Buyurtmachi"ning boshqa qurilmalari nosozligi sababli pochtaga kira olmasligi uchun javobgar emas.

6.2. «Buyurtmachi»ning puquq va majburiyatlari:

«Buyurtmachi» shartnomada belgilangan talablarga rioya ӣilgan polda to`lovlarni amalga oshirish, xizmatni ushbu shartnomada va qonun hujjatlarida belgilangan tartibga, soniga, sifatiga qarab o`z vaqtida qabul qilib olishi lozim.

«Buyurtmachi» qabul qilish-topshirish dalolatnomasi orqali qabul qilib olingan hizmat uchun va yuborilgan ma'lumot uchun amaldagi qonun hujjatlariga asosan javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

«Buyurtmachi» erotik, millatchilik va O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari bilan ta'qiqlangan va tarmoq etiketiga zid bo'lgan ma'lumotlarni pochta orqali yuborishi qat'iyan man etiladi.

## VII. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI.

7.1. Ushbu shartnoma bo`yicha majburiyatlarni ijro etilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O`zbekiston Respublikasi Qonunchiligida shuningdek ushbu shartnomada nazarda tutilgan tarzda javobgardirlar.

7.2. «Xizmat kursatuvchi» «Buyurtmachi»ning oldindan mablagi bulgan xolda xizmatni belgilangan muddatda bajarib bermaganligi uchun kechiktirilgan har bir kun uchun shartnomada ko`rsatilgan summaning 0,5 % miqdorida «Buyurtmachi»ga penya to`laydi, bunda penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan summaning 50 % dan ortiq bo`lmasligi lozim.

7.3. Shartnoma talablarida ko`rsatilgan sifatlaridagi hamda butlashdagi mol-mulk berilmagan bo`lsa, aybdor taraf 20% miqdorida jarima to`laydi.

7.4. «Buyurtmachi» ko`rsatilgan xizmat uchun to`lovni o`z vaqtida amalga oshirmasa, kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan summaning 0,4 % miqdorida «Xizmat kursatuvchi»ga penya to`laydi, bunda penyaning umumiy miqdori kechiktirilgan summaning 50 % dan ortiq bo`lmasligi lozim.

## VIII. TOMONLARNING KORRUPSIYaGA QARShI QO'ShIMChA ShARTLARI.

8.1. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi, ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yohud nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olinishini kafolatlaydi.

8.2. Tomonlar korrutsiyaga qarshi qoidalar buzilganda va (yoki) asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron tizim orqali) yoki ishonch telefonlari orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda, tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega bo'lib, murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushuntirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

8.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatlarda xavf-xatar bartaraf etilmay, tomonlar amalga oshirgan choralar korrupsion holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yish huquqiga ega.

## IX. FORS-MAJOR HOLATLARI.

8.1. Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida o`ziga bog`liq bo`lmagan sabablarga ko`ra va yengib bo`lmas kuch mavjud bo`lgan taqdirda ushbu shartnomada ko`rsatilgan majburiyatlari bo`yicha javobgar emas. Favqulotda tusdagi holatlarga: suv toshqini, yongin, yer silkinishi va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek xarbiy xarakatlar, davlat organlarining aktlari yoki xarakatlari va taraflar nazorat qila olmaydigan boshqa, xar qanday holatlar tegishlidir.

8.2. Taraflar ushbu shartnomada ko`rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to`grisida albatta ikkinchi tarafni ogohlantirishi shart.

8.3. Agar bartaraf qilib bo`lmaydigan kuch 1 oy uzluksiz davom etsa, taraflar bir-birini yozma ravishda ogohlantirib, shartnomaning ijrosini bekor qilishi mumkin.

## X. ShARTNOMANI O`ZGARTIRISh VA BEKOR QILISh TARTIBI.

9.1. Ushbu shartnomani bajarish, o`zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo`ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O`zaro kelishilmasa iqtisodiy sud va O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari tartibida hal qilinadi.

9.2. Shartnoma taraflarning o`zaro kelishuviga asosan yoki O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to`lagan holda muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

9.3. Ushbu shartnoma 2022-yil «___»-yanvardan 2022-yil «31»-dekabrgacha amalda bo`ladi. Shartnoma ikki nusxada tuzilib, ularning har biri bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi. Shartnoma tomonlar imzolab tasdiqlanganlaridan so`ng qonuniy kuchga kiradi.

## XI. TOMONLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI.

| **«Xizmat kursatuvchi»** | **«Buyurtmachi»** |
|---|---|
| Farg'ona viloyati hokimligi huzuridagi Elektron hokimiyatni rivojlantirish markazi<br>Manzil: Farg'ona shahri, A.Navoiy 15 | Marg'ilon shaxar Xalq ta'limi bo'limi<br><br>Manzil: B.Marg'iloniy 80-uy |
| X/r : 2021 0000 2047 4233 5001<br>MFO: 00498<br>Bank nomi: ATB "Turonbank" Fargona filiali<br>INN: 206 980 663<br>QQS kodi: 330050108527<br><br>**Rahbar** **S.Maxmudov** | X/r : 400122860304127096300075001<br>MFO: 00014<br>Bank nomi: XKKM Toshkent<br>INN: 200140081<br><br>**Rahbar** ____________ **G.N.Kayumova** |

рон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: VB2820770733

Yuridik ahamiyatga ega hujjatlarning qonun hujjatlariga muvofiqligi to‘g‘risida huquqiy

# XULOSA

| | |
|---|---|
| 1. Loyihaning turi: | Shartnoma. |
| 2. Loyihaning nomi: | Xizmat ko`rsatish haqida. |
| 3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: | Marg‘ilon shahar xalq ta`limi bo‘limi (buyurtmachi) va Farg‘ona viloyat hokimligi huzuridagi «Elektron hokimiyatni rivojlantirish markazi» (xizmat ko`rsatuvchi), hujjat 2022-yil 10-yanvar kuni ishlab chiqilgan va 2022-yil 10-yanvar kuni dasturga kiritilgan. |
| 4. XULOSA: | |
| Marg‘ilon shahar xalq ta`limi bo‘limi (buyurtmachi) va Farg‘ona viloyat hokimligi huzuridagi «Elektron hokimiyatni rivojlantirish markazi» (xizmat ko`rsatuvchi) o`rtasida tuzilayotgan xizmat ko`rsatish haqida haqidagi shartnoma loyihasisida (*summa: 499445 so`m*) ko‘rsatilgan munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining «Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to‘g‘risida»gi Qonuni va Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi hamda shartnomada nazarda tutilgan taraflarning javobgarligi va nizolarni xal etish tartibi yuqorida zikr etilgan qonunchilik talablariga mos keladi. Qayd etilganlarni inobatga olib shartnomani tuzish **maqsadga muvofiq**. | |

**Marg‘ilon shahar YuXK markazi**
**bosh yuriskonsulti**
**2-darajali yurist** **A.A.Usmonov**

*2022-yil «10»-yanvar*